Annotatsiya. Mazkur maqolada strategik boshqaruv hisobi tushunchasi, uning zamonaviy tadbirkorlik va iqtisodiyotdagi ahamiyati hamda uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ishlab chiqarish xarajatlarining strategik boshqaruv hisobini samarali tashkil etish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, kalkulyatsiya tizimini takomillashtirish jarayonida strategik boshqaruv hisobini zamonaviy sharoitlarga moslashtirishning amaliy yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: strategik boshqaruv, hisob tizimi, kalkulyatsiya tizimi, normativ hisob tizimi, me'yoriy hisob, ABC usuli, "standart-kosts" tizimi, mahsulotning haqiqiy tannarxi, strategik rejalashtirish, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the concept of strategic management accounting, its role and significance in modern entrepreneurship and economics, as well as the main directions for its improvement. The necessity of enhancing the efficiency of organizing strategic management accounting for production costs is substantiated. In addition, practical approaches to adapting strategic management accounting to modern conditions in the process of improving the costing system are examined.

Key words: strategic management, accounting system, costing system, standard costing, ABC method, standard cost system, actual product cost, strategic planning, economic efficiency.

Аннотация. В статье научно рассматривается концепция стратегического управленческого учета, его роль и значение в современном предпринимательстве и экономике, а также основные направления его совершенствования. Обосновывается необходимость повышения эффективности организации стратегического управленческого учета производственных затрат. Кроме того, анализируются пути адаптации стратегического управленческого учета к современным условиям в процессе совершенствования системы калькуляции.

Ключевые слова: стратегическое управление, система учета, система калькуляции, нормативный учет, метод ABC, система «Стандарт-кост», фактическая себестоимость продукции, стратегическое планирование.

KIRISH

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish jarayonida o'z yechimini kutayotgan bir qator muhim va dolzarb masalalar mavjud. Jumladan, boshqaruv hisobida ishlab chiqariladigan mahsulot (ish, xizmat) birligi tannarxini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan amaldagi kalkulyatsiya tizimlaridagi muammolar ushbu masalalar qatorida alohida o'rin tutadi. Shu bois, mazkur muammolarni ilmiy jihatdan tadqiq etish va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalkulyatsiya tizimini takomillashtirish jarayonida bir qator asosiy omillarni hisobga olish zarur. Xususan, jahon bozor iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari, kalkulyatsiya tizimlari rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar nuqtayi nazaridan mamlakat bozor iqtisodiyoti rivojlanishining istiqbollari, buxgalteriya hisobining eng yangi yutuqlari, boshqaruv nazariyalarining zamonaviy yondashuvlari hamda axborot tizimlarining rivojlanish yo'nalishlari shular jumlasidandir.

Biznesni yuritish maqsadlariga muvofiqlik nuqtayi nazaridan kalkulyatsiya tizimlarining istiqbollari bir nechta o'lchamlarda namoyon bo'ladi. Jumladan, vaqt mezonini bo'yicha o'tgan va kelgusi davrlar, boshqaruv qarorlari darajasiga ko'ra tezkor, taktik va strategik yondashuvlar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektning raqobat afzalliklari nuqtayi nazaridan farqlanish strategiyasi hamda xarajatlarda yetakchilik (liderlik) strategiyasi



alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, zarur vaqt va sifat o'lchamlarini qo'llab-quvvatlash sohasida ham muayyan istiqbollar shakllanadi.

Tadqiqot yo'nalishida olib borilgan o'rganishlar natijalari, xususan, kalkulyatsiyaning an'anaviy tizimlari tahlili ularni kelgusida rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Mazkur tahlil doirasida kalkulyatsiya tizimini takomillashtirishning muhim omili sifatida normativ (me'yoriy) hisobni rivojlantirish yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratildi.

Normativ hisobning kelgusidagi rivojlanishi boshqaruv hisobining nafaqat biznes jarayonlarini, balki xo'jalik yurituvchi subyekt bo'linmalarini samarali boshqarishga qaratilgan asosiy vazifalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar amaliyotida normativ hisobning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish natijasida quyidagi ikki asosiy xulosaga kelindi:

birinchidan, normativ hisob tizimida faqat mahsulotning haqiqiy tannarxini hisoblash bilan cheklanib qolish maqsadga muvofiq emas;

ikkinchidan, mahsulotlar bilan bir qatorda biznes-jarayonlarini hamda ularning tarkibiy elementlari bo'lgan jarayonlar va ishlarni normativ hisob obyektlari tarkibiga kiritish zarur.

Mazkur tadbirlar samaradorligini oshirishda ABC-usuli bilan integratsiyalashuvni ta'minlash, shuningdek, xarajatlar moddalar yoki elementlari bo'yicha omillar kesimida schyotlarda chetlanishlar hisobini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Chetlanishlar bo'yicha hisobni tashkil etishda ikki asosiy model ajratib ko'rsatiladi. Birinchi model "standart-kosts" tizimiga xos bo'lib, unda belgilangan hisobot davri yakunida chetlanishlar hisoblab chiqiladi va keyinchalik tahlil qilinadi. Bunda chetlanishlar iste'mol qilingan resurslar va omillar kesimida maxsus subschyotlarda hisobga olinadi hamda, odatda, dekapitalizatsiya qilinib, mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydi.

Ikkinchi model milliy normativ hisob tizimiga xos bo'lib, u joriy hisob jarayonida og'ishlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va taqsimlashga asoslanadi. Ushbu model doirasida me'yorlar bo'yicha xarajatlar hamda me'yordardan og'ishlar alohida hisobga olinadi. Chetlanishlar belgilangan topshiriqlar asosida birlamchi hujjatlarda rasmiylashtiriladi, dekapitalizatsiya qilinmaydi va mahsulotning haqiqiy tannarxiga kiritiladi.

Normativ hisob va "standart-kosts" tizimlarining asosini me'yoriy (reja, standart) xarajatlar tashkil etadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida qo'llanilganda rejadagi, standart va me'yoriy xarajatlar konsepsiyalari o'zaro yaqin tushunchalar hisoblanadi. Shunga qaramay, ularning o'zaro nisbatini chuqur tahlil qilish talab etiladi. Ma'lumki, "standart-kosts" tizimi nafaqat buyurtma va o'zgartirish uslublaridan, balki me'yoriy hisob tizimidan ham ayrim jihatlar bilan farqlanadi. Shu bilan birga, "standart-kosts" tizimi va normativ hisobning kelib chiqishi yagona ilmiy-metodologik manbaga borib taqaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Strategik boshqaruv hisobi va unda xarajatlar hisobini tashkil etish masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, tadqiqotlar asosan boshqaruv hisobining nazariy asoslarini shakllantirish, kalkulyatsiya tizimlarini takomillashtirish va xarajatlarni strategik boshqarish mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Boshqaruv hisobining mohiyati va uni xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida tashkil etish masalalari Abduganiyev A.A. tomonidan chuqur tahlil qilingan. Muallif boshqaruv hisobining korxona samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda amaldagi kalkulyatsiya tizimlaridagi muammolarni ilmiy asosda yoritib, boshqaruv hisobini strategik darajada rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Normativ hisobning sanoat korxonalarida tashkil etilishi va uning modellari E.K. Gilde asarlarida o'rganilgan bo'lib, unda normativ hisobni ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish hamda me'yoriy xarajatlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari taklif etilgan. Ushbu yondashuv normativ hisobni tizimli tashkil etish uchun muhim nazariy asos hisoblanadi.

Xarajatlarni strategik boshqarish va raqobat sharoitida marketing hamda boshqaruv strategiyalarini shakllantirish masalalari Goltsev A.V. tadqiqotlarida yoritilgan bo'lib, muallif strategik qarorlarning tannarx shakllanishiga ta'sirini ochib beradi. Boshqaruv hisobining korporativ boshqaruv sifatini oshirishdagi ahamiyati esa Golova S. tomonidan asoslab berilgan.

Xorijiy adabiyotlarda, xususan Druri K. asarlarida, "standart-kosts" tizimi, standart tannarxlar va chetlanishlar hisobi orqali boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari keng yoritilgan. Ushbu yondashuv "standart-kosts" tizimi bilan normativ hisob o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Mahalliy olimlar Abdusalomova N.B. va Maxsudov B.Yu. tadqiqotlarida byudjetlashtirish va ichki nazorat tizimlarini boshqaruv hisobi bilan integratsiyalash masalalari ko'rib chiqilgan. Strategik boshqaruv hisobini metodologik rivojlantirish masalalari esa Kostaev U.U. ishlarida yoritilgan bo'lib, unda boshqaruv hisobini strategik rejalashtirish jarayoniga moslashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Hasanov B.A. va Hashimov A.A. asarlarida boshqaruv hisobining nazariy va amaliy jihatlarini tizimli bayon etilgan.



Nesvetaylov V.F. tadqiqotlarida strategik boshqaruv hisobi konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinib, boshqaruv hisobi strategik boshqaruv instrumenti sifatida talqin etiladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili normativ hisob, “standart-kosts” va ABC-kosting tizimlari yetarli darajada o‘rganilganini ko‘rsatadi. Biroq ularni strategik boshqaruv hisobi doirasida kompleks va integratsiyalashgan holda qo‘llash masalalari yetarlicha yoritilmagan bo‘lib, mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot strategik boshqaruv hisobida xarajatlar hisobi va kalkulyatsiya tizimlarining hozirgi holati hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlarini ilmiy asosda o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida boshqaruv hisobi tizimlari, xususan, normativ hisob, “standart-kosts” va ABC-kosting usullarining nazariy hamda amaliy jihatlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi doirasida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, ilmiy abstraksiyalash va mantiqiy tahlil usullari orqali strategik boshqaruv hisobining mohiyati, vazifalari hamda uning xarajatlar boshqaruvidagi o‘rni aniqlab berildi. Taqqoslash usuli yordamida normativ hisob va “standart-kosts” tizimlarining umumiy hamda farqli jihatlari aniqlanib, ularning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi imkoniyatlari baholandi.

Shuningdek, tizimli va kompleks yondashuv usullari qo‘llanilib, xarajatlar hisobini faqat ishlab chiqarish jarayonlari doirasida emas, balki xo‘jalik yurituvchi subyektning barcha biznes-jarayonlari — ta‘minot, logistika, ishlab chiqarish va sotish jarayonlari kesimida tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratildi. Bu yondashuv strategik boshqaruv hisobining zamonaviy sharoitlarga moslashuv darajasini aniqlash imkonini berdi.

Empirik tahlil jarayonida me‘yoriy hisob va “standart-kosts” tizimlarida chetlanishlarni aniqlash, hujjatlashtirish va hisobga olish mexanizmlari o‘rganildi. Jadval usuli orqali ushbu tizimlarning asosiy ko‘rsatkichlari tizimlashtirilib, ularning boshqaruv va moliyaviy hisobdagi aks etish xususiyatlari tahlil qilindi. Mazkur jarayonda chetlanishlarning davr xarajatlariga olib borilishi, ularning haqiqiy tannarxni shakllantirishdagi o‘rni baholandi.

Bundan tashqari, tahliliy umumlashtirish usuli asosida normativ hisobni ABC-kosting usuli bilan integratsiyalash imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Ushbu metod orqali xarajatlarni biznes-jarayonlar kesimida me‘yoriy hisob asosida baholash va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqotda rasmiy statistik ma‘lumotlar, ilmiy monografiyalar, dissertatsiyalar, darsliklar hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari asosiy axborot manbai sifatida foydalanildi. Olingan natijalar asosida strategik boshqaruv hisobida xarajatlar hisobi va kalkulyatsiya tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi¹.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biz mazkur tizimlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni, shuningdek, ularning asosiy sabablarini aniqlashni amalga oshirdik (1-jadval).

1-jadval. Normativ hisob va “standart-kosts” tizimlarining umumiy hamda farqli jihatlari

Taqqoslash mezonlari	Normativ hisob tizimida	“Standart-kosts” tizimida
1. Tizim asosiga normativlar (standartlar) qo‘yilishi	Ha	Ha
2. Chetlanishlarni hujjatlashtirish mexanizmi orqali aniqlash	Ha	Amalga oshirilmaydi
3. Chetlanishlar hisobini yuritish uchun alohida buxgalteriya schyotlaridan foydalanish	Ha	Ha
•Chetlanishlar turlari va sabablari bo‘yicha schyotlarning keng tarmog‘idan foydalanish	Shunday	Ha

¹ “Standart-kosts” va normativ hisob tizimlarining paydo bo‘lishi hamda rivojlanishi korxonani tezkor boshqarish ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liqdir. Chetlanishlarni o‘z vaqtida qayd etish va ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash maqsadida tahlil qilish turli boshqaruv darajalaridagi rahbarlar uchun samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tizimlarning asosiy foydalanuvchilari qatoriga byudjetlarni ishlab chiquvchilar, texnologlar, me‘yorlovchilar, mas‘uliyat markazlari bo‘yicha boshqaruv jarayonida ishtirok etuvchi mutaxassislar hamda rag‘batlantirish uchun mas‘ul menejerlar kiradi. Ushbu tizimlar doirasida shakllantiriladigan axborot bo‘linmalar va butun korxona faoliyati natijalarini kelgusida baholash uchun ishonchli axborot bazasi vazifasini bajaradi.



•Chetlanishlarni hisobga olish uchun schyotlarning cheklangan miqdoridan foydalanish	Ha	Shunday
4. Boshqaruv va moliyaviy hisobda chetlanishlarni davr xarajatlariga olib borish	Ha	Ha
•Chetlanishlarni tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor va sotilgan mahsulot qoldiqlari o'rtasida taqsimlash	Amalga oshirilmaydi	Ha
•Chetlanishlarni to'liq davr xarajatlariga olib borish	Ha	Amalga oshirilmaydi
5. Tizimga kirishda normativ (standart) tannarxni kalkulyatsiya qilish	Ha	Ha
6. Tizimdan chiqishda haqiqiy tannarxni kalkulyatsiya qilish	Ha	Amalga oshirilmaydi
7. Tezkor boshqaruv ehtiyojlari uchun qo'llash	Ha	Ha
8. Byudjetlashtirish jarayonida qo'llash	Ha	Ha
9. Xodimlarni rag'batlantirish mexanizmlarida qo'llash	Ha	Ha

Shunday qilib, vazifalarning o'xshashligiga qaramay, me'yoriy hisob va "standart-kosts" tizimlari yakuniy natijasi bilan farqlanadi. Xususan, me'yoriy hisobda yakuniy mahsulot mahsulotning haqiqiy tannarxi bilan ifodalanadi. "Standart-kosts" tizimida esa yakuniy natija mas'uliyat omillari va markazlari kesimida tannarx moddalar (xarajatlar unsurlari) bo'yicha aniqlangan chetlanishlardan iborat bo'ladi.

Me'yoriy hisob tizimida chetlanishlarni aniqlash va ularni hisobga olish mazkur usulning tarkibiy elementlaridan biri hisoblanib, uning asosiy maqsadini tashkil etmaydi. Boshqacha aytganda, chetlanishlarni hisobga olish jarayon sifatida namoyon bo'ladi va yarim tayyor natija hisoblanadi, yakuniy mahsulot emas. Vujudga kelgan chetlanishlarni hujjatlashtirish metodologiyasi, xususan, tezkor boshqaruv nuqtayi nazaridan samarali vosita sifatida, me'yoriy hisob tizimiga xosdir. "Standart-kosts" tizimida esa chetlanishlar to'g'risidagi axborot hisobot davri yakunida yoki nisbatan qisqa davriylikda maxsus yordamchi hisoblarda tizimli ravishda shakllantiriladi.

Me'yoriy hisobda chetlanishlar to'g'risidagi axborotni shakllantirishning hisoblash usuli o'ziga xosdir. Ushbu tizimning asosiy maqsadi mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlashdan iborat bo'lib, bu holat uni "standart-kosts" tizimidan farqlovchi muhim jihat hisoblanadi. "Standart-kosts" tizimida esa, odatda, mahsulotning haqiqiy tannarxi to'liq hisoblab chiqilmaydi.

Me'yoriy hisob bo'yicha so'nggi yarim asr davomida amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyati ushbu tizimning iqtisodiyot tarmoqlarida tashkil etilish xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Me'yoriy hisobni amaliyotda qo'llash, shuningdek, "standart-kosts" va me'yoriy hisob metodologiyalarini chuqur tahlil qilish acocida shunday xulosaga kelish mumkinki, uni kelgusida takomillashtirish jarayoni alohida tarmoqlar xususiyatlariga asoslanib emas, balki kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim.

Mazkur yo'nalishda E.K. Gilde tomonidan taklif etilgan yondashuv ilg'or hisoblanadi. U xo'jalik yurituvchi subyektning texnologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda me'yoriy hisob elementlarini tizimlashtirishni taklif etadi. Biroq zamonaviy xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruvning yangi obyekti sifatida biznes-jarayonlarning shakllanishi ushbu yondashuvni yanada takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Shu sababli me'yoriy hisobni tashkil etishda faqat ishlab chiqarish jarayonlariga asoslangan an'anaviy yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, balki biznes-jarayonning barcha tarkibiy elementlarini, jumladan, ta'minot, logistika, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini ham qamrab olish maqsadga muvofiqdir. Mazkur jarayonlarning har biri me'yoriy xo'jalik yuritish xususiyatlariga ega bo'lib, ular bo'yicha xarajatlarni me'yoriy hisob asosida baholash imkoniyatlari mavjud.

Shuni ta'kidlash joizki, me'yoriy hisob uslubiyotining keyingi rivojlanishi yangi yo'nalishlar asosida amalga oshmoqda. An'anaviy ravishda ommaviy ishlab chiqarishga yo'naltirilgan me'yoriy hisobdan farqli ravishda, biznes-jarayonlar bo'yicha xarajatlarni me'yoriy hisob asosida yuritish istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, normativ hisob usuli va "ABC-kosting" tizimini o'zaro uyg'un holda qo'llash orqaligina uning yuqori samaradorligiga erishish mumkin. Shu munosabat bilan mazkur usulga qanday o'zgartirishlar kiritish zarurligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Avvalo, me'yorlash obyekti hamda biznes-jarayonlar bo'yicha me'yorlardan chetlanishlar hisobini yuritish tizimi qayta ko'rib chiqiladi.

Vazifalarning bajarilishi nuqtayi nazaridan biznes-jarayonlar bo'yicha me'yorlar turli yo'nalishlar, sohalar yoki faoliyat jabhalari kesimida kalkulyatsiya qilinadi va quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- jarayonlar bo'yicha me'yoriy kalkulyatsiya;
- biznes-jarayonlar bo'yicha me'yoriy kalkulyatsiya;
- mahsulot bo'yicha me'yoriy kalkulyatsiya (an'anaviy yondashuv).



Xarajatlar hisobi me'yorlardan chetlanishlarni rasmiy yoki norasmiy usullar orqali aniqlash yo'li bilan an'anaviy tartibda amalga oshiriladi². Chetlanishlarni hisobga olish maqsadida buxgalteriya schyotlarida biznes-jarayonlar (yoki ularni tashkil etuvchi ishlab chiqarish, logistika va sotish jarayonlari) bo'yicha alohida ishchi subschyotlar ochiladi. "Chetlanishlar sabablarini hujjatlashtirish" texnologiyasi biznes-jarayonlar bo'yicha normativ hisobda ham samarali qo'llanishi mumkin.

Normativ hisob tizimida haqiqiy tannarxni hisoblashga nisbatan ilgari bildirilgan yondashuvdan kelib chiqqan holda, operatsiyalar, jarayonlar va biznes-jarayonlar bo'yicha haqiqiy tannarxni hisoblash, shuningdek, mazkur obyektlar bo'yicha haqiqiy kalkulyatsiyalarni tuzish maqsadga muvofiq emas. Ushbu tizimda me'yoriy tannarx hamda inobatga olingan chetlanishlar hisob jarayonining yakuniy natijasi sifatida qaraladi.

An'anaviy yondashuvda bo'lgani kabi, chetlanishlarni xarajatlar moddolari yoki unsurlari bo'yicha, ya'ni omillar kesimida jamlash tavsiya etiladi. Hisoblar ishchi rejasida ajratib ko'rsatilgan maxsus schyotlar va subschyotlar orqali rasmiy hisob yuritish eng samarali usul sifatida e'tirof etiladi.

Turli sohalarida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda normativ hisobni qo'llash amaliyotining kuchli va zaif jihatlarini umumlashtirish natijasida normativ hisobni samarali amalga oshirishning quyidagi asosiy shart-sharoitlari shakllandi:

1. birinchidan, tasdiqlanadigan me'yorlar va me'yoriy ko'rsatkichlarning quyi tizimini yaratish hamda amaldagi me'yorlar asosida me'yoriy kalkulyatsiyalarni tuzish, ya'ni mahsulotlar (ishlar, jarayonlar, biznes-jarayonlar, buyurtmalar va mas'uliyat markazlari) bo'yicha dastlabki me'yoriy tannarxni aniqlash;

2. ikkinchidan, xarajatlar va faoliyat natijalari hisobining umumiy tizimiga me'yoriy kalkulyatsiyani integratsiya qilish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sabablar va an'analarni tahlil etgan holda me'yorlar o'zgarishining doimiy monitoringini olib borish, shuningdek, ishlab chiqarish texnikasi, texnologiyasi va tashkiliy tuzilmasidagi o'zgarishlar samaradorligini baholash;

3. uchinchidan, xarajatlarning tasdiqlangan me'yorlardan chetlanishlarini ularning paydo bo'lish joylari bo'yicha aniqlash va bu haqda mas'ul menejerlar hamda mutaxassislarini o'z vaqtida xabardor qilish.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish lozim:

- me'yorlardan chetlanishlar sabablarini tasniflovchi klassifikatorni ishlab chiqish;
- xo'jalik yurituvchi subyektning operatsiyalarni bajaruvchi bo'linmalari o'rtasida samarali o'zaro aloqani ta'minlash va sabablar guruhlari bo'yicha chetlanishlar uchun mas'ul shaxslarni belgilash;
- me'yorlardan chetlanishlarni qayd etuvchi birlamchi hujjatlar va ichki hisobot shakllarini ishlab chiqish;
- harakat yo'nalishlari va ularning davriyligini aniqlash;
- ishchi schyotlar rejasida me'yorlar va me'yorlardan chetlanishlar bo'yicha xarajatlarni hisobga olish uchun alohida subschyotlarni joriy etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari strategik boshqaruv hisobida xarajatlar hisobi va kalkulyatsiya tizimlarini takomillashtirish xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, zamonaviy iqtisodiy sharoitda an'anaviy kalkulyatsiya yondashuvlari boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yetarli axborot bazasini ta'minlamaydi. Shu sababli normativ hisob, "standart-kosts" va ABC-kosting usullarini strategik boshqaruv hisobida kompleks qo'llash zarur.

Tahlil natijalari normativ hisob va "standart-kosts" tizimlarining vazifalari o'xshash bo'lsa-da, ularning yakuniy natijalari bilan farqlanishini ko'rsatdi. Normativ hisobda asosiy maqsad mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash bo'lsa, "standart-kosts" tizimida chetlanishlar axboroti boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu holat har ikki tizimdan strategik boshqaruv hisobida maqsadga muvofiq foydalanish zarurligini asoslaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, normativ hisobni faqat ishlab chiqarish jarayonlari bilan cheklash uning imkoniyatlarini toraytiradi. Zamonaviy sharoitda normativ hisobni ta'minot, logistika, ishlab chiqarish va sotish kabi barcha biznes-jarayonlar kesimida tashkil etish xarajatlarni strategik darajada boshqarish imkonini

2 Me'yorlardan chetlanishlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash rasmiy va norasmiy usullar orqali amalga oshiriladi. Birinchi usul me'yoriy ko'rsatkichlarga javob bermaydigan xom ashyo ishlatilishi, ishlab chiqarish jarayonining buzilishi va shunga o'xshash holatlarni aniqlashni nazarda tutadi. Ushbu sabablarning har biri alohida tartibda aniqlanadi hamda sabablar klassifikatoridan olingan kodlar va chetlanishlar uchun mas'ul shaxslar ko'rsatilgan holda birlamchi hujjatlarda qayd etiladi. Ikkinchi usul qat'iy determinatsiyalangan omilli modellarni tuzish va ularni tahlil qilishga asoslanadi. Odatda, me'yorlardan chetlanishlar baholarning o'zgarishi hamda sarflangan resurslar hajmining o'zgarishi hisobiga yuzaga kelishi bo'yicha ajratib ko'rsatiladi. Baholar bo'yicha chetlanishlar sarflangan resurslarning haqiqiy miqdori va amaldagi baholar o'rtasidagi farq asosida aniqlanadi. Samaradorlik bo'yicha chetlanishlar (me'yoriy omil) esa sarflangan resurslar miqdorining me'yoriy baholardan og'ishi sifatida baholanadi. Norasmiy usul asosan me'yoriy hisob tizimiga xos bo'lsa, rasmiy usul "standart-kosts" tizimida qo'llaniladi. Ikkinchi usul nafaqat chetlanishlarni tahlil qilish, balki rejalashtirish va me'yorlash jarayonlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning natijalari xodimlarni rag'batlantirish tizimini shakllantirishda muhim axborot manbai hisoblanadi.



kengaytiradi. Shuningdek, normativ hisobni ABC-kosting usuli bilan integratsiyalash xarajatlarni aniqroq taqsimlash va ularning samaradorligini baholashga xizmat qiladi.

Olingan xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq: normativ hisobni strategik boshqaruv hisobining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish; me'yoriy ko'rsatkichlarning moslashuvchan tizimini shakllantirish; normativ hisob va ABC-kostingni integratsiyalash; me'yorlardan chetlanishlarni aniqlash va tahlil qilish mexanizmlarini takomillashtirish; axborot texnologiyalarini boshqaruv hisobiga keng joriy etish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari strategik boshqaruv hisobida xarajatlar hisobi va kalkulyatsiya tizimlarini rivojlantirish boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

FODALANIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduganiyev A.A. Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari va ularning yechimlari. – Toshkent: TMI, 2003. – 275 b.
2. Gilde E.K. Modeli organizatsii normativnogo ucheta v promyshlennosti. – Moskva: Finansy, 1970. – 112 s.
3. Goltsev A.V. Strategicheskiy marketing. – Ryazan: "Mart", 1998. – 180 s.
4. Golova S. Upravlencheskiy uchet kak faktor povysheniya kachestva korporativnogo upravleniya // Audit i bukhgalteriya v Ukraine. – 2003. – 345 s.
5. Druri K. Upravlencheskiy uchet dlya biznes-resheniy: darslik / ingliz tilidan tarjima. – Moskva: YunITI-DANA, 2003. – 665 s. (Zarubejniy uchebniklar seriyasi). – 567–569-betlar.
6. Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va byudjetlashtirish uslubiyotini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019-yil. – 71 b.
7. Avloqulov A. Moliyaviy natijalar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019-yil.
8. Ibragimov A.K., Hasanov B.A., Rizaev N.K. Amaliy boshqaruv hisobi: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Moliya, 2014. – 404 b.
9. Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va audit: monografiya. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008. – 152 b.
10. Kostaev U.U. Strategik boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020-yil. – 69 b.
11. Maxsudov B.Yu. Boshqaruv hisobida byudjetlashtirish metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.
12. Hasanov B.A., Hashimov A.A. Boshqaruv hisobi: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2005. – 308 b.
13. G'iyosov I.K. Boshqaruv hisobini tashkil etish va samaradorligini oshirish yo'nalishlari: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020-yil. – 58 b.
14. Nesvetaylov V.F. Stanovlenie kontseptsii strategicheskogo upravlencheskogo ucheta // Vestnik TGU. – 2011. – № 7 (99). – 45–51-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>